



BOLALAR UCHUN IJODIY VAZIFALAR INGLIZ TILI DARSLARIDA

Shamsutdinova Iroda Alijonovna

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich

Ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida qo'llaniladigan metodlar haqida tushuncha, dars davomida ijodiy vazifalardan foydalanishning ahamiyati hamda ingliz tili o'rganuvchilari uchun bunday vazifalarning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi va misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: ijodiy faoliyat, ingliz tili o'qituvchilari, o'qituvchilar malakasini oshirish, ta'limda ijodkorlik, ijodiy pedagogika.

Interfaol metodlar bugungi kunda mashg'ulot Rahbari faoliyati uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishning metodik asoslarini rivojlantirish uchun ularning kreativ sifatlarini rivojlantirish talab etiladi. Pedagogik innovatsiyalar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, ular pedagogik izlanishlar natijasi, ilg'or pedagogik tajribalar mahsulidir.

Yangi shakllangan ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish vazifasi birinchi navbatda mashg'ulot rahbarining zimmasiga yuklanadi. Bunday holatlar bo'lajak o'qituvchilardan maxsus pedagogik-psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Xuddi mana shu bilimlar negizida pedagogik idrok, pedagogik innovatsiyalarni baholash va amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

M.Y.Glotovanning fikricha o'quv-tarkibiy jarayonga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bilan bog'liq tarzda mashg'ulot rahbari o'z zimmasiga uddaburonlik, maslaxatchilik, yo'naltiruvchanlik va tarbiyaviy vazifalarni o'z ichiga



oladi. Buning sababi, mashg'ulot rahbarining kasbiy faoliyatida nafaqat o'z faniga doir bilimlar joriy etiladi, balki harbiy pedagogika va psixologiyaga oid zamonaviy bilimlar, ta'lim-tarbiya texnologiyalari va kreativ faoliyat tajribasi ham keng qo'llaniladi.

„Advanced” metodi

Dars jarayonida talabalarni soniga qarab ularni guruhga bo'lib olamiz, har bir guruhda 5-6 tadan talaba ishtirok etadi. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchilar o'zlariga ma'qul bo'lgan harflarni aytadi va yozuv taxtasiga yozishadi.

Masalan, A, D, J, R, V, S, I, P, T harflari bo'lsa ishtirokchilar o'z guruhlarida tezkorlik bilan ularni ketma-ketlikda so'zlariga, so'zlardan esa tugallangan gapga aylantirishadi.

Bu metoddan maqsad, o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlashga, passiv o'quvchilarni ham fikrlashga, faollikka diqqatini bir joyga jamlashga hamda pozitiv kayfiyat ulashishga undaydi.

„Portfolio”Metodi

Bu metod talabalar uchun individual hamda jamoa tarzida o'tkazilsa ham bo'ladi. O'quvchilar o'zlarini o'tadigan fanidan nimalarni bilishi, salohiyati, bilimi, intellekti nimalarga yetishini bir bor sinab ko'radilar.

Ya'ni ular bugungi darsni qanday o'tkazish kerak ekanligini taklif va g'oyalar beradi.

Ularni taklifini eshitib, hammasini inobatga olib qaror qabul qilasiz.

- Tezkor savol-javob
- Turli xil metodlar
- Krassvordlar
- Test
- Rolli o'yin
- Fan yuzasidan izohlar
- Biror mavzuni qisqa tushuntirish



•Mustaqil qaror qabul qilish

Bunda talaba mustaqil va kreativ fikrlashga harakat qiladi, fanga qiziqadi va o'ziga bo'lgan ishonchni his qiladi.

XXI asr taraqqiyoti gullab yashnayotgan davrda zamonaviy ta'lim makonida ta'lim va tarbiyaning o'rni nihoyatli ahamiyatlidir. Hozirgi zamon yoshlari jamiyat taraqqiyotini shakllanishida asosiy poydevor bolib xizmat qiladi. Har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi. Bunday shaxsni shakllantirishga maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish o'ziga xos hissa qo'shadi. Chet tilini o'rgatish bolaning shaxsiy rivojlanishini ya'ni zamonaviy dunyodagi ko'p tilli va ko'p ma'daniyatli vaziyatga moslashish uchun uni yangi til dunyosi bilan tanishtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Chet tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab, bir tomondan, shuningdek, ota-onalar tomonidan til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili. Agar ancha yil oldin tilni bilish faqat ba'zi sohalar ishlarida talab qilinadigan bo'lsa, endi kamida bittasini o'zlashtirish kerak edi. Yaqin vaqtgacha o'qitish metodikasi bolalarga qaratilgan edi maktab yoshi, endi ota-onalar chet tilini o'rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda. Yoshlar ta'limi davomida xo'rijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Natalya Kireeva "Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyo'rgarlik ko'ramiz. Birinchisini tanlaymiz." deb takidlab o'tdi. Yaqinda u mahalliy ta'lim tizimi va printsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi to'g'risida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibo'r berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Shuni ham takidlab o'tishim kerakki, muvaffaqiyatga erishishda yo'rdam berish uchun maktabgacha tarbiya mutaxassislaridan erta bolalik ta'limi jarayonida eng sevimli o'qitish strategiyalari bilan o'rtoqlashishini so'rab



qolamiz. Maktabgacha yoshdagi guruh uchun o'qitish strategiyalarining ushbu ro'yxati tarbiyachi sifatida taraqqiy etish va o'rganish uchun juda yaxshi o'tish imkoniyatlarini beradi.

1. Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli. Kundalik so'z boyligini targ'ib qilishning usullaridan biri - Touchtime Internationalning direkto'ri dokto'r Eleyн Fogel Shneyderning so'zlariga ko'ra: "Bolalarga umumiy brendlar va belgilarga og'zaki yo'rliq qo'yishdir." U rasmdan so'zga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yo'rdam berishini tushuntiradi. Yani bu bolalarni yangi tillarni tez va oson o'zlashtirishida juda katta yo'rdam beradi.

2. Ovozni tanib olish va moslashtirish usuli. Ushbu tadbir uchun kartondan kesilgan bir nechta katta harflar va shu harflar bilan boshlanadigan bir nechta kichik, ammo unchalik katta bo'lmagan narsalar kerak bo'ladi. Masalan, agar sizning harflaringiz M va K bo'lib, sizda mushuk va fil bo'lsa. Bolaga mushuk chiqaradigan ovozni aytishdan boshlang. Keyin, bolani xuddi shu tovush bilan boshlanadigan narsani topishga undab, uni harfga yopishtiring. Bezatilgan harflar sinfdan saqlanishi yoki ota-onalar bilan bo'lishish uchun uyga olib kelinishi mumkin. Shnayderning ta'kidlashicha, bu mashg'ulot talabalarning sevimli narsasidir, chunki bu ularga o'z bilimlarini o'rganishda amaliy yo'rdam beradi. Bundan tashqari, bu "shoh asar" ni keltirib chiqaradi.

3. Tabiat dunyosi bilan o'ganish usuli. Bolalar darslarni tabiat muhitida o'zlashtirishga juda qiziqishadi. Odatda, ularni hovli bog' orqali tabiat dunyosi to'g'risida ma'lumot berish ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Bu usul o'simlikni urug'dan yetilguncha o'stirish bolalarga o'z o'sishi haqida ma'lumot beribgina qolmay, ularni chet tilidagi so'larni tez va oson o'zlashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu usul stressni yengillashtiradi va nozik vosita mahoratini oshirishga ham yo'rdam beradi.



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi globalashuv jarayonida ta'lim tizimida interfaol metodlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mashg'ulot rahbarining kasbiy faoliyati zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va kreativ fikrlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan ham keng qamrovli pedagogik-psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Interfaol metodlar, jumladan, "Advanced", "Portfolio", rolly o'yinlar, tezkor savol-javob, ijodiy topshiriqlar va boshqa faol usullar talabalarda jamoada ishlash, mustaqil qaror qabul qilish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bunday metodlar o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifodalash, kreativ yondashish, bilimlarga qiziqish hamda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ham chet tilini erta yoshdan o'rgatish bolaning umumiy rivojlanishida, uning dunyoqarashi va ko'p madaniyatlilikka moslashuvida muhim o'rin tutadi. Rasmlar bilan ishlash, ovozlarni tanish va moslashtirish, tabiat asosida o'qitish kabi metodlar bolalarning lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo'lib, ularning tabiiy qiziqishini oshiradi, faol o'rganishga jalb qiladi. Bu jarayon nafaqat til o'rganishni, balki nutq, tafakkur, tasavvur, diqqat va kichik motorika kabi ko'nikmalarni ham kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, ta'lim jarayoniga zamonaviy interfaol strategiyalarni joriy etish, pedagoglarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish, mashg'ulot rahbarlarining metodik mahoratini takomillashtirish bugungi ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Kreativ va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, zamonaviy jamiyat talablariga mos, keng dunyoqarashli, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish uchun interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. Ana shu yondashuvlarga ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni kelajak hayotga puxta tayyorlashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.M.Ergasheva „Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishning metodik asoslari" 2024
2. S.Ataxanova „Sog'lom avlod uchun" ilmiy ommabop jurnal materiallari 2014
3. Kasimova Shaxlo Baxromovna „Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy usullari" 2024
4. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010
5. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik
6. Азизова Зироат. "CONSEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECHION" Yosh tadqiqotchi Jurnal 1 (5) 404-410, 2022
7. Azizova Ziroat Bahodirovna "THE IMPORTANCE OF ORGANIZING CHILDREN'S ACTIVITIES IN PREPARATION FOR SCHOOLING." Open Access Repository 9.11 (2022): 236-240. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE 2022 Boston, USA 53